



UZBEKISTAN POET UBAYDIY

Jamoliddin Abdullayev

Senior lecturer of the Department of
"Uzbek Language and Literature" at UzJOKU
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18084813>

ARTICLE INFO

Received: 22nd December 2025

Accepted: 28th December 2025

Online: 29th December 2025

KEYWORDS

Ubayd, classical literature,
ruler-poet, ghazal,
multilingualism, interpretation
of the Koran, popularization.

ABSTRACT

This article analyzes the literary legacy of Ubaydi (Ubaydullah Khan), a sixteenth-century poet-ruler and a representative of Uzbek classical literature. The study examines his worldview shaped by complex historical and political conditions, his poetic interpretation of kingship and poverty, the originality of his love lyrics, his multilingual literary heritage, and his religious and educational activities. Special attention is paid to Ubaydi's pursuit of spiritual perfection and his inclination toward simplicity and folk-oriented expression as defining features of his poetry.

УЗБЕК ПОЭТ УБАЙДИЙ

Джамолиддин Абдуллаев

Старший преподаватель кафедры

«Узбекского языка и литературы» УзЖОКУ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18084813>

ARTICLE INFO

Received: 22nd December 2025

Accepted: 28th December 2025

Online: 29th December 2025

KEYWORDS

Убайд, классическая
литература, правитель-
поэт, газель, многоязычие,
толкование Корана,
популяризация.

ABSTRACT

В статье анализируется творчество поэта и правителя XVI века Убайди (Убайдуллахана), представителя узбекской классической литературы. Рассматриваются его мировоззрение, сформировавшееся в условиях сложных исторических и политических противоречий, художественная интерпретация власти и нищеты, своеобразие любовной лирики, многоязычное литературное наследие, а также религиозно-просветительская деятельность. Подчеркивается стремление поэта к духовному совершенству и народности как важная особенность его творчества.

O'ZBEK SHOIRI UBAYDIY

Jamoliddin Abdullayev

O'zJOKU "O'zbek tili va adabiyoti"

kafedrasi katta o'qituvchisi



ARTICLE INFO

Received: 22nd December 2025

Accepted: 28th December 2025

Online: 29th December 2025

KEYWORDS

Ubaydiy, mumtoz adabiyot, hukmdor-shoir, g'azal, ko'p tillilik, Qur'on tafsiri, xalqchillik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada XVI asr o'zbek mumtoz adabiyoti vakili, hukmdor-shoir Ubaydiy (Ubaydullaxon) ijodi tahlil qilinadi. Unda shoirning hayotiy ziddiyatlar ichida shakllangan ijodiy dunyoqarashi, podsholik va gadolik talqini, ishqiy lirikasidagi o'ziga xoslik, ko'p tilli adabiy merosi hamda diniy-ma'rifiy faoliyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida hukmdor-shoirlar alohida mavqega ega. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Bobur mirzo singari adib-hukmdorlar safida Ubaydiy ham nafaqat siyosiy arbob, balki yuksak badiiy tafakkur sohibi sifatida namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, Ubaydiyning adabiy merosi hanuzgacha yetarli darajada maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada shoir ijodining asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos jihatlari ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Shonli Turon zaminida 137 yil hukmronlik qilgan Temuriylar davlati 1449-yilda Sohibqiron Amir Temurning sevimli nabirasi, buyuk olim va hukmdor Mirzo Ulug'bekning fojiali tarzda vafot etilishi ortidan siyosiy-ijtimoiy inqiroz bosqichiga kirib bordi. Mazkur voqeadan so'ng Temuriylar saltanatida markazlashgan davlat boshqaruvi izdan chiqib, ichki nizolar va taxt uchun kurashlar kuchaydi. Natijada 1501-yildan boshlab Movarounnahrda davlat hokimiyati rasman Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbek qabilalari vakillari — Shayboniylar sulolasi qo'liga o'tdi.

Shayboniylar sulolasi hukmronligining qaror topishi bilan Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy kuchlar nisbatida tub burilish yuz berdi. Muhammad Shayboniyxon tomonidan asos solingan bu sulola qisqa fursat ichida Temuriylar davridan qolgan parokandalikni bartaraf etishga va markazlashgan davlat boshqaruvini yo'lga qo'yishga intildi. Ana shunday murakkab siyosiy jarayonlar fonida Shayboniylar sulolasining yirik namoyandalaridan biri — Ubaydulloxon tarix sahnasiga chiqdi. U nafaqat davlat arbobi sifatida, balki ma'naviy hayot va adabiy muhit rivojiga munosib hissa qo'shgan hukmdor sifatida ham alohida e'tiborga lo-yiqdir.

Ma'lumki, Ubaydulloxon hijriy 892 (milodiy 1487) yilda Xorazmning Vazir shahri yaqinida joylashgan Yamani Tirsak mavzesida Mahmud Sulton oilasida tavallud topgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, u Mahmud Sultonning yagona farzandi bo'lgan. 1504-yilda otasining vafotidan so'ng Shayboniylar sulolasi asoschisi bo'lgan amakisi Muhammad Shayboniyxon tomonidan Ubaydulloxonga Buxoro hokimligi topshiriladi.

O'rta Osiyo siyosiy tarixida Ubaydulloxonning eng katta xizmatlaridan biri shundaki, u Ismoil Safaviy boshchiligidagi eroniylarning, tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy tabiri bilan aytganda, "qizil boshlar"ning hujumlarini daf' etib, Movarounnahrni ularning istibdodidan saqlab qoldi.



1510-yilda Muhammad Shayboniyxonning fojiali tarzda halok bo'lishi Shayboniylar davlatida siyosiy vaziyatning keskinlashuviga sabab bo'ldi. Ana shunday murakkab sharoitda davlat boshqaruvi amalda Ubaydulloxon qo'liga o'tdi. Biroq u o'zbek sultonlari orasida qat'iy qaror topgan sulolaviy an'anaga amal qilib, xonlik taxtiga sulolaning eng yoshi katta vakili — Ko'chkunchixonni ko'tardi. Keyinchalik Shayboniylar davlatini Ko'chkunchixon (1510–1530) hamda Abusaidxon (1530–1533) boshqargach, 1533-39 yillar Ubaydulloxon rasman Shayboniylar sulolasining oliy hukmdori sifatida taxtga o'tirdi.

Ubaydulloxon yirik siyosiy arbob va mohir harbiy sarkarda sifatida tarixda muhim iz qoldirgan. Uning boshchiligidagi qo'shinlar Eron safaviylar davlati hukmdori Shoh Ismoil Safaviyning harbiy kuchlarini Movarounnahr hududidan siqib chiqarishga muvaffaq bo'lib, mintaqa mustaqilligi va siyosiy barqarorligini ta'minlash yo'lida tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan harbiy-siyosiy g'alabalarga erishdi.

Ubaydulloxon hukmronligi yillarida Movarounnahr, ayniqsa Buxoro shahri siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalish bosqichini boshdan kechirdi. Uning boshqaruvi davrida Buxoro nafaqat Shayboniylar davlatining muhim siyosiy markaziga, balki ilm-fan va ma'rifat maskaniga aylandi. Mazkur davrda ko'plab me'moriy inshootlar bunyod etilib, ular orasida bugungi kungacha o'z tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab kelayotgan Mir Arab madrasasi alohida e'tiborga loyiqdir. Muarrix Hofiz Tanish Buxoriy Ubaydulloxonning davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatini yuqori baholab, "Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab yashnadi." deya ulug'laydi¹.

Bu iqtibos Ubaydulloxonning Movarounnahr va Buxoro hududlarida siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga hissa qo'shishdagi yuksak xizmatlarini tasdiqlaydi. Tarixiy manbalar Ubaydulloxonni nafaqat harbiy va siyosiy arbob, balki mamlakatni gullab-yashnatgan hukmdor sifatida e'tirof etadi

Ubaydulloxon faoliyati nafaqat harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlari, balki bunyodkorlik siyosati bilan ham ajralib turadi. Uning tashabbusi va homiyliги ostida barpo etilgan inshootlar Movarounnahrning shaharsozlik an'analari va madaniy hayotini yuksaltirishga xizmat qilgan. Ubaydulloxon nafaqat davlat arbobi va mohir harbiy sarkarda sifatida tanilgan, balki salohiyatli olim, iste'dodli shoir va mahoratli tarjimon sifatida ham tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Ubaydulloxon ham o'z davrining ko'plab hukmdorlari — Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Bobur mirzo singari muttasil ijod bilan shug'ullangan adib-hukmdorlardan biri bo'lib, ijodda «Ubaydiy», «Qul Ubaydiy» taxalluslarini qo'llagan. Shoirning o'zbek, fors va arab tillaridagi she'rlaridan iborat uch devoni bir muqova ostida jamlangan. Ushbu uch tilli devonning yagona ma'lum qo'lyozma nusxasi 1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan bo'lib, kotib asarni «Kulliyot» deb nomlagan. Mazkur noyob qo'lyozma hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda².

¹ Hofiz Tanish Buxoriy, *Abdullanoma*, T., 1966, 110-bet

² Abdullayev M. Ubaydiy hayoti adabiy faoliyati. Avtoreferat. T.: 2000.



Ubaydiyning o'zbek tilidagi devoni tarkibiga 306 g'azal, 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuq, shuningdek noma, muammo, masnaviy, hikmat va tarje'band janrlaridan namunalar kiradi. Bu raqamlarning o'ziyoq shoir ijodining hajman keng va janrlar jihatidan rang-barang ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramay, Ubaydiyning boy adabiy merosi hozirga qadar maxsus va mukammal tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

Ubaydiy, ayniqsa, o'zbek tilidagi g'azal va ruboiylari, qit'a va tuyuqlari bilan mumtoz she'riyatdagi ayrim janrlarning taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. Jumladan, shoir asosan besh baytli g'azallar yaratgani bilan ajralib turadi. Bu holat Ubaydiy g'azaliyotiga xos bo'lgan muhim poetik xususiyatlardan biri sanaladi.

Shoir asarlarida asosan an'anaviy mavzular — ishq va muhabbat, vafodorlik va do'stlik, ayol go'zalligi va oshiq sadoqati, saxovat va muruvvat kabi tushunchalar talqin etiladi. Biroq mazkur mavzularning qayta-qayta takrorlanishiga qaramay, she'rlardagi badiiy ifodaning o'ziga xosligi, shoir shaxsiyatiga xos yuksak axloqiy fazilatlar bilan uning nafis va go'zal ichki dunyosi o'rtasidagi uyg'unlik har bir satrda sezilib turadi va kitobxon e'tiborini o'ziga tortadi.

Tarixiy manbalarda uning ijodi yuqori baholangan bo'lib, masalan, Hofiz Tanish Buxoriy o'zining "*Sharofnomai shohiy*" asarida Ubaydiy ijodini quyidagicha ta'riflaydi:

Ey Parvardigor, u qanday suxandon podshoh
So'z bobida siyraklardan edi.
Turkcha ham, arabcha nazm va nasr qilishda
Sehrsozlik yo'li unga halol edi.
She'r bobida u bilimdonlar sultoni,
Madaniyatda hammaga yetakchi edi.
U she'r dunyosida gavharga
Ummon dengizidek boy edi.
Daryo sohiliga gavharlarni sochib yuborar edi.
She'rlarining mazmuni dilni oluvchi, lafzi shirin edi.
Qalami tig'I shakar bilan asalning aralashmasi edi.
Fasihlikda dami jonni parvarish qilar edi.
E'jozda Isodan darak berardi³.

Mamlakatimizda XVI asr adabiy muhiti bilan bog'liq tadqiqotlar ilk bor 1926-yilda professor Abdurauf Fitrat tomonidan "*Maorif va o'qituvchi*" jurnalida e'lon qilingan "*XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash*" ilmiy maqolada va "*Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshiruvlar*" maqolasida Ubaydiy ijodi mavzusi yoritilgan. Mazkur maqolada Fitrat XVI asr adabiyotining asosiy xususiyatlari, jumladan Ubaydiy ijodiga doir fikrlar va uning o'zbek mumtoz she'riyatidagi o'rni haqida so'z yuritadi. Mazkur maqolada Fitrat Ubaydiyning shoirlik maqomi haqida so'z yuritib: "Ubaydullo

³ Sharofnomai shohiy. - T., 1966. B. 106-107. Bu she'r "Tarixiy Rashidiyda ham bor.



shoir ham mutasavvuf shoirdir... Uning forscha bir g'azali mashhur mutasavvuf Mahdumi A'zam tomonidan tasavvuf uslubida sharh qiling'on"⁴, - deya baho beradi.

Ubaydiy she'rlari ilk bor 1945-yilda, Olim Sharofiddinov tomonidan tayyorlangan "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi"ning II-tomida e'lon qilinib, keng ilmiy jamoatchilikka taqdim etilgan. Unda Ubaydiyning bittadan she'r, qit'a va ruboyisi berilgan.

Ubaydiy she'rlari mustaqillikning ilk yillarida alohida kitob shaklida nashr etildi⁵. Mazkur nashr 1994-yilda Navoiyshunos olim professor Abduqodir Hayitmetov tomonidan "Vafo qilsang" nomi bilan chop etilgan. Kitob muqaddimasi sifatida insoniyatning paydo bo'lishi va hamd-g'azal orqali boshlangan bo'lib, ushbu boshlang'ich hamd she'rlari asarning ma'naviy ohangini belgilaydi. To'plamdagi barcha g'azallar mumtoz o'zbek adabiyoti an'analari asosida shakllangan bo'lib, badiiy uslub, ma'naviy mazmun va tasviriy lavhalar jihatidan yuqori darajada namoyon bo'ladi. Shu tariqa, Ubaydiy ijodi nafaqat tarixiy manbalar orqali, balki matniy nashrlar orqali ham o'rganishga kirishilgan va tadqiqotchilar tomonidan o'zbek adabiy merosining muhim qismi sifatida e'tirof etilgan. Quyidagi g'azalda oshiqning sevgilisidan ayrilgandagi ruhiy tushkunligi va ichki azobi nozik badiiy vositalar orqali ifodalanadi:

O'rtanur hajr o'tig'a jismi figurim sensiz.
Kuyadurmen, netay, ey lola uzorim, sensiz.
Ravnaqi bog'u bahorim eding, ey sarvi sehi,
Topmadi nashvu namo bog'u bahorim sensiz.
Xar necha ko'kdin o'tub buzdi maloyik ko'nglin, —
Ohu afg'onim ila nolai zorim sensiz.
Tufrog'im sovrulubon chiqti kuyundek, ey sarv,
Sarsari hajr ila gardung'a g'uborim sensiz.
Sabr etib qilmas edim nola Ubaydiy yonglig',
Yo'qturur, vah, netayin sabru qarorim sensiz.

Mazkur g'azali firoq mavzusida yozilgan bo'lib, oshiqning ruhiy holati va sevgilisidan ajralish og'rig'i ifodalanadi. Ubaydiy g'azalda **hajr (ajralish)** va **sog'inch** timsollarini asosiy g'oya sifatida ishlatgan. Har bir misra shoirning ichki kurashini va ruhiy aziyatini ochib beradi. G'azal boshida "O'rtanur hajr o'tig'a jismi figurim sensiz" misrasi oshiqning sevgilisidan ajralishi natijasida yuzaga kelgan ruhiy azobni tasvirlaydi. "Ravnaqi bog'u bahorim eding" misrasida sevgilisi bog' va bahor bilan qiyoslanib, uning hayotdagi nurlil va yasharuvchi ahamiyatini ko'rsatadi. Bu tasvirlar majoziy sevgiga oid lirik qahramon sevuvchi, oshiq insondirki, shu insoniy tuyg'ularini ketma-ket izhor etmoqda. Shunday xulosani quyidagi g'azaliga nisbatan ham aytilsa bo'ladi:

Sohir ko'zining mardumin inson desa bo'lmas,
Ul kofir erur, oni musulmon desa bo'lmas.
Jismim aro jon o'rnida jononim erur jon,
Jon desa bo'lur muni, ani jon desa bo'lmas.

⁴ Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshiruvlar. Toshkent. 1994. 3-bet.

⁵ Qul Ubaydiy. Vafo qilsang. - T., 1994 (Nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov)



Zulfi ne balo ozar ko'ngullarni yig'ibtur,
Jam'iyati bor asru parishon desa bo'lmas.
Majnundin erur besaru somonlig'im afzun,
Qoshimda oni beasru somon desa bo'lmas.
Nodon dema Majnun ishini, —desa Ubaydiy,
Oqil kishini jahl ila nodon desa bo'lmas.

Ubaydiy g'azallarida ishq va oshiqlik mavzulari ko'pincha umumiy mulohazalar bilan birga **aniq bir shaxs nomi bilan bog'liq holda** ham ifodalanadi. Shuningdek, shoir ko'p hollarda o'z do'sti yoki qadrtoniga **pok nazar bilan qarashini** ta'kidlaydi. G'azallarda ko'ngil bergan kishining ichki holati va tashqi ko'rinishi bilan bog'liq badiiy tasvirlar ishlatiladi: masalan, ko'ngilning **g'unchaga o'xshab qon bilan to'lganligi**, yuzi **sariq va yaqosi chok bo'lishi** kabi obrazlar orqali oshiqning ruhiy kechinmalari va sevgilisi bilan bog'liq nozik jihatlar yetkaziladi. Ana shunday shartlar va obrazlar bayon qilingach, shoir yakunlovchi baytda **ahboblar orasida eng yaqin va sevikli do'sti Xojai Lo'lak ekanini** ochiq bayon qiladi va unga **ana shu shaxsga o'xshash habib kerakligini** ochiqchasiga, baralla ta'kidlaydi:

Oshiq o'lg'on kishilarning nazari pok kerak;
Oni bilmakka dog'i fahm ila idrok kerak.
Ishqdin g'uncha kibi ko'ngli to'la qon kerak;
Yuzi ham soriq guldek yaqosi chok kerak.
Ishq jon bermaku bosh o'ynamoqu kuymakdur;
Oshiq ul ishlarida chobuku cholok kerak.
Ishq oshiftasi oshiq kishining ohicha —
So'zlari dardliku ko'zlari namnok kerak.
So'z Ubaydig'a dema o'zga habibidikkim,
Anga ahbob aro Xojai Lo'lok kerak.

Ubaydiy lirikasi faqat yor va unga sodiq oshiq o'rtasidagi muhabbat va mojarolarni kuylashdan iborat emas. Shoir qalbi hayotdagi har bir voqea va holatga o'z munosabatini bildiradi. Uning fikricha, zamon, davr, ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit shunchalar qudratli va ta'sirchan bo'ladiki, hech bir inson undan to'liq ajralib qololmaydi. Ubaydiy ta'kidlaydiki, **zamondagi adolatsizlik va jafolar ham shohni, ham gadoyini birdek qiynaydi**, va ko'pincha zamonning yaxshilik ko'rsatishini kuzatish qiyin. Shuning uchun, inson faqat **chidam, sabr va shukrona bilan** zamonning sinovlariga bardosh bera oladi. Shoirning g'azallarida zamon bilan murosasiz ichki kurash, ruhiy iztirob va hayotdan qoniqmaslik kayfiyati tez-tez uchraydi. Jumladan, uning quyidagi baytida shoirning zamon bilan bo'lgan murakkab munosabatlari yorqin ifodalanadi:

Bir lahza ko'nglum o'lmadi beg'am zamonadin,
To'ydi zamon mendinu men ham zamonadin.
Yetmay ko'ngulga shodlig', ey hamdamim,yetar,
Yuz ming g'amu alam anga hardam zamonadin.
Jam'iyatiki bor edi ko'ngul diyorida,
Ul dog'i bo'ldi bir yo'li darham zamonadin.
Ko'nglum guli bu gulshan aro so'lg'ali dame,



Umrim niholi bo'lmadi xurram zamonadin.
Marham jarohatingg'a, Ubaydiy, tilarni qo'y,
Yetmas jarohat ahlig'a marham zamonadin.

Mazkur misralar shoir hayotida osoyishtalik deyarli bo'lmaganini, u doimo zamona ziddiyatlari ichida yashaganini ko'rsatadi. Bu holat Ubaydiyning faqat shoir sifatida emas, balki tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasini ham ochib beradi.

Ubaydiy hukmron sulola vakili bo'lishiga qaramay, uning hayot yo'lini faqat zafaru shon-shuhratdan iborat deb tasavvur etish biryoqlama qarash bo'lur edi. Shoir yashagan davr murakkab siyosiy vaziyat, siyosiy parokandalik va ichki nizolar bilan xarakterlanadi. Bu holatlar Ubaydiyning shaxsiy hayotida ham, ijodiy dunyoqarashida ham chuqur iz qoldirgan.

Ayniqsa, shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari gadolik va podsholik tushunchalarini qiyoslash orqali yanada teranlashadi. Bir g'azalida Ubaydiy gadolikni podsholikdan ustun qo'yib, gadolig'ning farog'atli ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, u podsholik hayotida tashqi ko'rinishdan farovonlik bo'lishi mumkin bo'lsa-da, aslida mehnat va tashvishlar ko'proq, ya'ni podshoh ham o'z vazifalaridan xoli emas, balki uning hayoti balo va mas'uliyat bilan to'la:

*Base farog'ati bor, do'stlar, gadolig'ning,
Balou mehnati ko'p asru podsholig'ning.*

Bu baytda shoir hayotiy haqiqatni nihoyatda samimiy va keskin tarzda ifodalaydi. Tashqi tomondan podsholik qudrat, boyluk va farovonlik ramzi bo'lib ko'rinsa-da, aslida u og'ir mas'uliyat, tinimsiz mehnat va ruhiy iztiroblar bilan kechadi. Aksincha, gadolik — ya'ni mansab va hokimiyatdan yiroq hayot — tashvishlardan holi bo'lgan ichki osoyishtalik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Mazkur qarash Sharq mumtoz adabiyotiga xos bo'lgan falsafiy an'ana bilan hamohangdir. Xususan, Navoiy, Bobur kabi mutafakkir shoirlar ijodida ham mansab va hokimiyatning o'tkinchiligi, insoniy xotirjamlikning ustuvorligi ko'p bora ta'kidlangan. Ubaydiy ana shu an'anani davom ettirib, o'z shaxsiy hayotiy tajribasi asosida yanada samimiyroq va iztirobli ohangda ifodalaydi.

Shu sababli Ubaydiyning murakkablik va ziddiyatlarga boy davrdagi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, uning amaldorlik va hukmdorlikdan ko'ra ma'naviy kamolot, she'riyat va ijodga bo'lgan intilishi ustun bo'lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu xulosa shoirning faqat ijtimoiy mavqeiga emas, balki badiiy merosida aks etgan hayotiy qarashlariga tayanadi.

Ubaydiyning asarlarida hokimiyat va mansab tashqi qadriyat sifatida emas, balki insonning ichki pokligi va ma'naviy yetukligi bilan qiyoslanadi. Xususan, shoir o'z yigitlariga bag'ishlangan bir tuyug'ida ularni bozordan yaxshi ot sotib olish bilangina cheklanmasdan, jamiyat tarixida ham "yaxshi ot" — ya'ni ezgu nom qoldirishga da'vat etadi. Bu da'vatda chuqur ramziy ma'no va yuksak axloqiy talqin mujassam:

*Ey yigitlar, yaxshi-yaxshi ot oling,
Yaxshi otlar birla yaxshi ot oling.*



Mazkur misralarda “ot” so‘zi ikki xil ma‘noda qo‘llanib, bir tomondan moddiy ne‘matni, ikkinchi tomondan esa inson sha‘ni va obro‘cini anglatadi. Shoir yosh avlodni nafaqat dunyoviy muvaffaqiyatlarga, balki ma‘naviy poklik va tarixiy mas‘uliyatga undaydi. Bu esa Ubaydiy ijodining axloqiy-falsafiy yo‘nalishini, uning hukmdor sifatidagi emas, balki mutafakkir shoir sifatidagi qiyofasini yanada yorqin namoyon etadi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida oshiqona g‘azal keng tarqalgan bo‘lib, bu mavzuda deyarli barcha yirik shoirlar qalam tebratgan. Biroq Ubaydiyning quyidagi satrlari ifoda uslubi, ohangi va samimiy ichki kechinmalarni berishi jihatidan ayrim shoirlar ijodi bilan qiyoslash imkonini beradi:

*Ko‘nglum bila dildorni men yod etadurmen,
Xotirni dog‘i yodi bila shod etadurmen.
Bedod etadur jonima dildor, netaykim,
Demas: «Nega bu xastag‘a bedod etadurmen!»*

Mazkur misralar, avvalo, **Alisher Navoiy**ning ayrim ishqiy g‘azallarini eslatadi. Xususan, ko‘ngil, yor, dard va bedod munosabatining sodda, lekin qalbdan kelib chiqqan tarzda tasvirlanishi Navoiy lirikasiga xos jihatlardandir. Ammo Ubaydiyda murakkab badiiy san‘atlardan ko‘ra, **bevosita hissiyot ifodasi** ustun turadi.

Shu bilan birga, bu satrlarni **Bobur** she‘riyati bilan ham qiyoslash mumkin. Bobur g‘azallarida ham oshiqning ichki iztirobi, yor zulmiga sukut bilan chidayotgan holati tabiiy va xalqona ohangda tasvirlanadi. Ubaydiy singari Bobur ham ortiqcha tasvir va murakkab istioralardan qochib, fikrni sodda va samimiy ifodalashga intiladi.

Biroq Ubaydiyning mazkur she‘rini na to‘liq Navoiyga, na Boburga aynan o‘xshatib bo‘ladi. Chunki unda **o‘ziga xoslikka intilish** yaqqol seziladi. Shoir she‘riy uslubida soddalikka moyillik, fikrni imkon qadar xalqchil va ravon bayon etishga urinish ustunlik qiladi. Oshiqning dardini falsafiy umumlashmalar orqali emas, balki kundalik ruhiy kechinma darajasida ifodalashi Ubaydiyning ajratib turadi.

Ubaydiy faqat o‘zbek tilida emas, balki arab va forsiy tillarda ham ijod qilgan⁶. Ubaydiyning arab tilini mukammal egallagani uning diniy-ilmij saviyasining yuksakligini ham ko‘rsatadi. Bu jihatni “Muzakkiri ahbob” asari muallifining ma‘lumotlari ham tasdiqlaydi. Unda qayd etilishicha, "Qur'on mutolaasini osonlashtirish uchun turkiy tilda yozgan Qur'on tafsirikim, dalillarga suyanadigan asosda bitilgan..."⁷

Mazkur kitobda Ubaydiyning arab tilida bitgan bir g‘azali keltiriladi.

Hayra fi jamolihi, nzur fi kamolihi,
Kulli lison vosif fi sifot jamolihi⁸.

Ma‘nosi:

Yor jamoli hayratga solur, qaddu qomati ko‘zing olur.
Har bir til esa husni sifotin vasf etar.

⁶ Qayumov A. XVI asr o‘zbek adabiyoti. 6-jild . - T., 2010. B.95.

⁷ Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. - T., 1993. B.24

⁸ O‘sha kitob. B. 29



Shoirning fors tili she'rlari ko'lami ham ancha katta. Ular Ubaydulloxonning Kulliyotida ham bor. Ayrimlari esa Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarida ham keltirilgan:

Bo'yi arbobi vafo az guli mo meoyad,
Ka'ba zon ru ba tavofi dili mo meoyad⁹.

Ma'nosi:

Vafo ahlining hidi bizning gulimizdan keladur,
Shuning uchun Ka'ba bizning dilimiz ziyoratiga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Ubaydiyning boy va rang-barang ijodiy merosi chuqur o'rganilishi, har tomonlama va tizimli tarzda tadqiq etilishi lozim. Shoir ijodini janrlar, mavzular hamda g'oyaviy-badiiy yo'nalishlar asosida alohida-alohida o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Zero, o'zbek shoiri Ubaydiyning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni, uning bebaho badiiy va ma'naviy merosi kelgusi avlodlar tomonidan munosib baholanishi uchun bu ijod Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug' mutafakkirlar ijodi qatorida izchil va chuqur tadqiq etilishi zarur. Shu ma'noda, Ubaydiy ijodini ilmiy muomalaga kengroq jalb etish kelajak adabiyotshunoslik izlanishlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

References:

1. Hofiz Tanish Buxoriy, *Abdullanoma*, T., 1966, 110-bet
2. Fitrat. Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshiruvlar. Toshkent. 1994. 3-bet.
3. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti adabiy faoliyati. Avtoreferat. T.: 2000.
4. Qul Ubaydiy. Vafo qilsang. - T., 1994 (Nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov)
5. Abdullayev M. Ubaydiy hayoti adabiy faoliyati. Avtoreferat. T.: 2000.
6. Qayumov A. XVI asr o'zbek adabiyoti. 6-jild. - T., 2010. B.95.
7. Nisoriy H. Muzakkiri ahbob. - T., 1993. B.24

⁹ O'sha kitob. B. 30.